

BOLAJON XALQQA – BOLAJON KINOLAR KERAK

Qahhorov Muhammadali Xolbo‘ta o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15075135>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston kino san‘atida bolalar kinolariga bo‘lgan e‘tiborning yo‘qligi hamda bolalar uchun filmlar sur‘atga olinmayotganligi tahliliy fikrlar orqali tanqid qilingan. Ushbu mavzuning dolzarbligi bois, kino ijodkorlarga subyektiv fikrlar hamda takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: kino, san‘at, madaniyat, aktyor, rejissyor, tomoshabin, bolalar kinosi, “Sehrli qalpoqcha”, bolalar adabiyoti.

2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar soni 4,4 million nafar, 5–13 yoshdagi bolalar 6,1 million nafarni tashkil qilmoqda ekan. Hozirgi kunda esa, bu ko‘rsatkichlar o‘zgargani aniq. Raqamlardan ham ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonda 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar 11 millionga yaqin ekan. Bu esa jami aholi sonining 30 foizini tashkil qilmoqda.

Bundan ko‘rinadiki, kelajak qo‘lida bo‘lgan, XXI asrning ikkinchi yarmidan, to XXII asrgacha bo‘lgan vaqtda davlat hamda jamiyatning madaniy, iqtisodiy va ma‘naviy rivojlanishiga javobgar – aynan mana shu bolalardir. Bugungi kunda bolalarga ta‘lim-tarbiya berish, ma‘naviyatini yuksaltirish uyoqda tursin, ularni nimadirga yoki qaysidir sohaga qiziqtirishning o‘zi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Kun sayin texnologiyalar shu darajada rivojlanmoqdaki, bolalarni virtual olamdan chiqarib olish juda mushkul. Texnologiyalardan ortdan qolmaslik, barcha sohalarida raqamlashtirishni joriy etish bu zamon talabi. Jamiyat esa, zamonga moslashishga majburdir.

Shunday ekan, bu kelajakning yangi yetakchilari bo‘lmish, “Beta avlodi”ning taqdiri juda muhim. Ular zamonaviy bilimlar va qadriyatlar bilan katta bo‘lishadi. Shu boisdan, ularning jamiyatga kiritadigan yangiliklari hamda kashfiyotlari juda katta va muhim bo‘lishi mumkin. “Beta avlodi” vakillari jiddiy va dolzarb muammolar, jumladan iqlim o‘zgarishi, global demografik o‘zgarishlar va tezkor urbanizatsiya bilan kurashayotgan dunyoda yashaydilar.

Sotsiolog va futurolog Mark Makkrindl: ““Beta avlodi” sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish ta‘lim va ishdan tortib sog‘liqni saqlash va o‘yin-kulgigacha kundalik hayotga to‘liq integratsiyalashgan davrda yashaydi”¹, - deydi o‘z nutqlaridan birida. Darhaqiqat, bugungi kunga kelib, bolalarni gadjetlardan uzib qo‘yishning iloji yoq.

¹ <https://uz24.uz>

Ular mana shu gadjetlar orqali ta'lim-tarbiya va madaniyatni o'rganishmoqda. Ularning asosiy oziqlanuvchi manbasi bu ijtimoiy tarmoqlar hamda turli xil ilovalardir. Bolalar "Telegram", "Instagram", "YouTube", "Facebook" va "Tik-tok" kabi ijtimoiy tarmoqlarda asosiy vaqtlarini o'tkazishmoqda va ulardan har kuni biror bir ma'lumotni qabul qilishmoqda. Demak, bolalarga ta'sir o'tkazishning eng ma'qul yo'li, ularning ana shu gadjetlarining ichiga kirib borishdir. Bu gadjetlardagi platformalar orqali bolalarga eng tez ta'sir ko'rsatuvchi kuch, zamonaviy va texnogen san'at bo'lgan – kinodir.

Afsuski, oxirgi o'n yil ichida O'zbekistonda aytarli bolalar kinosi sur'atga olinmadi.

Hukumat tomonidan kino sohasiga qaratilayotgan e'tibor, har vaqtdagidan-da kattadir.

Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi tomonidan 2024-yilda jami 123 ta kinomahsulot ishlab chiqarilgan. Jumladan: 18 ta badiiy, 54 ta hujjatli, 32 ta qisqa metrajli va 8 ta animatsion filmlar, shuningdek, 9 ta serial va 2 ta reklama roligi suratga olingan. Animatsion filmlarni 4-8 yoshli bolalarning tomosha qilishini inobatga oladigan bo'lsak, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun filmlar, afsuski, sur'atga olinmayabdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jamiyatda bolalarning ulushi kattalardan qolishmaydi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, kattalar ko'p vaqtlarini ishlariga sarflashsa, aksariyat hollarda kino ko'rib turishlari mumkin. Lekin bolalar ko'p vaqtlarini maktabdagi darslarga hamda qo'llaridagi nurli telefonlar, shu bilan birga oynayi jahon orqali qo'yib boriladigan mahsulotlarni ko'rishga sarflashadi. Lekin, ular televizorni yoqishar ekan, yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishar ekan, ular uchun manfaatli kinomahsulotlari hamda kontentlar yo'q. Shu boisdan ular, bor "taomdan" "oziqlanishga" majburdir. Xo'sh, hukumat yoki kinoijodkorlarning bolalar uchun kino olishiga qanday muammolar yoki nima to'sqinlik qilmoqda? Juda ko'plab kinoijodkorlar bolalar mavzusidagi asarlarning tanqisligini muammo qilib aytishadi. Agar yaxshilab tahlil qilinadigan bo'lsa, yuqoridagi muammo emas, shunchaki bahona ekanligi oydinlashadi.

Kino tarixiga nazar solinsa, Rossiyadagi ilk badiiy filmlar rus klassik asarlarining ekranizatsiyasi bilan boshlangan edi. Bularga "Savdogar Kalashnikov haqida qo'shiq" (rejissyor: V.Goncharyov, 1909; M.Y.Lermontov asari asosida), "Telba" (rejissyor: P.Chardinin, 1910; F.M.Dostoyevskiy asari asosida), "Bog'chasaroy fontani" (1909-1910, A.S.Pushkin asari asosida), "Ivan Grozniyning o'limi" (rejissyor: V.Goncharyov, 1909; A.K.Tolstoy asari asosida) kabi qisqa metrajli filmlar kirib, rus kinematografiyasining shakllanishi va rivojida ulkan hissa qo'shgan edi.

O'zbekistonda ham kinorejissyorlar aynan bolalar kinosi uchun, shu tarjibadan foydalanishdi va bu muvoffaqiyatli bo'ldi deyish mumkin. 2012-yilda Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" qissasi asosida, rejissyor Sarvar Karimov hamda Nozim Jumayev tomonidan

sur'atga olingan "Sehrli qalpoqcha" filmi bunga yaqqol misoldir. Film nafaqat bolalarga, shu bilar birga barcha kino ixlosmandlari uchun manzur bo'ldi. Shu boisdan 2014-yilda Sarvar Karimov filmning ikkinchi qismini namoyish etdi. Filmning barchaga manzur bo'lishining asosiy sabablaridan biri bu uning xalqchilligidir. Kinodagi sarguzashtlar yoki bo'lmasam qahramonlar jamiyat hayotida uchrab turadigan, ularga yaqin va tanish bo'lgani uchun tomoshabinlar bu kinoni haligacha maroq bilan tomosha qilishadi. Hozirda ham Hoshimjondek (Bunyod Rahmatullayev), o'qimasdan ham "katta inson" bo'lishni xohlaydigan, o'z baxtini poytaxtdan qidirmoqchi bo'lgan, yoki bo'lmasam, sehrli qalpoqcha axtarib yurgan bolalar ham bor, albatta. Ikkala film ham quvnoq va zavqli sarguzashtlarga boy. Bolalar qissani qanday sevib o'qishgan bo'lsa, filmni ham shunday qiziqish bilan tomosha qilishdi. Hattoki, filmni ko'rganidan so'ng, "Sariq devni minib" kitobini qidirgan bolalar ham bor edi. Albatta, yaxshi asardan, yaxshi kino vujudga keladi. Bu kinoda nafaqat asar yaxshi edi, shu bilan birga, ijodiy guruh ham o'z ishining ustasi ekanligi, kinoning omadli chiqqanining katta sababidir. Aytish kerakki, zamonaviy fantastika janridagi ushbu filmni yaratish uchun 600 million so'm ajratilgan edi.

Hozirgi kunda ham o'zbek bolalar adabiyotida ekranlashtirilmagan mana shunday asarlar yetarlicha. Jumladan:

1. "Peshonasiga televizor yopishgan bolaning sarguzashtlari" – Xudoyberdi To'xtaboyevning ushbu asari bir qator jajji qissalardan iborat bo'lib, qissa qahramonlarining har biri atrofimizdagi bolalardir. Asar bolalarga juda qiziq va ularni zeriktirmaydi.

2. "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" – Qobiljon Shermatovning mazkur asari o'zining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Muallif o'z asari bilan bolalarni kreativ o'ylashga o'rgatadi deyish mumkin. Asarni o'qish orqali yosh o'quvchining yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlari boyiydi.

3. "Dahshatli Meshpolvon" – Anvar Obidjonning bu asari bolalar hissiyotlarini boshqara olishiga yordam beradi. Asarni o'qigan bola bir vaqtning o'zida kuladi, hayajonlanadi va yig'lay oladi.

4. "Alvido bolalik" – Tohir Malikning ushbu asari oila misolida bolalarni tarbiyalash borasida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar qanday og'ir oqibatlariga olib kelayotganini, hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmasligi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantirishi o'ziga xos tarzda ochib berilgan.

Faqatgina o'zbek adabiyoti bilan cheklanib qolmay, bolalarning dunyo qarashini yanada yuksaltirish uchun, jahon adabiyotiga ham qo'l urilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Buning uchun quyidagi asarlari tavsiya etish mumkin:

1. “Tom Soyerning boshdan kechirganlari” – Adib Mark Tven mazkur asarida yosh, o‘ta qiziqqon va sho‘x, chigal, to‘siqlardan ham qiynalmay o‘ta oladigan, og‘ir va murakkab sharoitlarda ham o‘zini tuta biladigan, uddaburon bola Tom Soyer haqida hikoya qiladi. Bu asar bolalarni o‘z fe‘l-atvorini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘z qobiliyatlaridan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatadi.

2. “Alkimyogar” – Taniqli yozuvchi Paulo Koeloning quyidagi asari hikoyaga ma’no va teranlik qo‘shadigan boy ramziy ma’noga ega adabiy xazinadir. Takrorlanuvchi motivlar va allegorik elementlar orqali Koelo o‘quvchilarni bosh qahramon Santyago bilan birga o‘z-o‘zini kashf qilish va ma’rifat safariga chiqishga taklif qiladi.

3. “Hellados” – Gruzin yozuvchisining ko‘katfurush grek, Venetsian ko‘chasi uchun janglar va ko‘krakdagi naqsh – Vatanni sevishga chorlash haqidagi asaridir.

Bunday asarlardan ko‘plab sanash mumkin. Yuqorida keltirilgan asarlarni o‘qigan kitobxon, ularni juda yaxshi tushunadi, bo‘layotgan voqealarni tez fahmlaydi va xulosa chiqaradi. Sanab o‘tilgan o‘zbek adabiyotlari haqiqatan bolalar uchun yozilgan, ularning qalb-qalblariga kirib boruvchi asarlardir. Agar ushbu asarlar kino qilinadigan bo‘lsa, ushbu kinodan bolalar o‘z qahramonlarini topishlari aniq. Jahon adabiyotidagi asarlarni esa, milliy qadriyatlarga tayangan xolda, xalqchil qilib ekranizatsiya qilinsa, nur ustiga, a’lo nur bo‘lar edi. Bunday kinolar jamiyatda kinosevarlarning ko‘payishiga olib keladi.

Chunki, kino san’ati – juda uzoq san’at. Ya’ni, bitta yaxshi kino uzoq masofaga yetib bora oladi, uzoq yillar davomida saqlanib, tomoshabinlar uchun xizmat qila oladi. Hattoki, hozirda biror bir kinoni ko‘rish, uchun kinoteatrga ham borishning hojati yo‘q (bu kinoteatrga bormaslikka targ‘ib emas). Xoh ijtimoiy tarmoqlardan (“YouTube”, “Telegram”) bo‘lsin, xoh kinoilovalar (“Kinopisk”, “iTV”) orqali bo‘lsin, kinosevar o‘ziga qulay vaqtda, o‘ziga qulay joyda va o‘ziga yoqqan ko‘plab filmlarni ko‘rishi mumkin.

Xo‘sh, kino san’ati shunday kuchga ega ekan, nega kinoijodkorlar ushbu san’atdan, uning kuchidan jamiyat, yurt kelajagi bo‘lgan bolalarning manfaati uchun foydalanishmayabdi? Bolalar uchun sifatli kinolar, yaxshi va foydali kontentlar ijodkorlar, san’atkorlar hamda ziyolilar tomonidan ularga ma’naviy ozuqa sifatida berilmas ekan, bolalar boshqa ma’nan past, sifatsiz va saviyasiz mahsulotlardan tarbiya, o‘rnak olishadi, ularga taqlid qilishadi.

REFERENCES

1. <https://uz24.uz>
2. Akbarov H. Kino-teledramaturgiya: nazariya va amaliyot. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: “ILM ZIYO”, 2006. -176 b.

3. X.Abulqosimova, S.Umarov. Kinodramaturgiya asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent:. "Nashriyot nomi" nashriyoti, 2018. -95 b.
4. Мухторова, М. (2022). ИСАМАТ ЭРГАШЕВ КИНОКОМЕДИЯЛАРИ. Science and innovation in the education system, 1(5), 20-26.
5. Мухторова, М. (2022). “ЧИНОР ТАГИДАГИ ДУЭЛ” ФИЛЬМИДА ХАРАКТЕР МАСАЛАСИ. Oriental Journal of Social Sciences, 2(1), 84-90.
6. Muxtorova, M. (2023). УЗБЕКСКОЙ КИНОКОМЕДИИ–80 ЛЕТ! Жанровый тематический обзор узбекской кинокомедии. Modern Science and Research, 2(10), 190-197.